



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2025-yil 12-avgust, № 163 (9058)

Seshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

### TADBIRKORLAR VA O'ZINI O'ZI BAND QILGAN SHAXSLAR UCHUN QULAY SHART-SHAROITLAR YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda strategik vazifaga aylangan. Iqtisodiyot ravnaqi, aholi bandligi va turmush farovonligida bu sohaning o'rnini juda katta. Shu bois biznes yuritish qoidalarini soddalashtirilib, qulayliklar oshirib borilmoqda. Raqamli texnologiyalar ommalashayotgani bunda qo'l kelayotir.

Buni davom ettirgan holda, shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirish, naqdsiz to'lovlar uchun qulayliklarni kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Unga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun 2030-yil 31-dekabr gacha qadar maxsus huquqiy rejim joriy etiladi.

Ularni davlat ro'yxatidan o'tkazishdan tortib hisobotni topshirishgacha bo'lgan barcha asosiy xizmatlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratiladi. Jumladan, faoliyatni rasmiylashtirish, bank hisobvaraqlari ochish va boshqarish, soliqlarni hisoblash va to'lash, hisob-kitoblarni qilish va fiskal cheklarni shakllantirish ushbu raqamli platformalar orqali yuritiladi.

Bu tizimda elektron hamyon ochilishi tadbirkorlarga daromadlarni qabul qilish, xodimlar, kontragentlar va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash imkoniyatini beradi. Elektron hamyonga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun bank hisobvaraqlarini ochish ixtiyoriy bo'ladi.

2025-yil 1-noyabrdan boshlab, bu jarayonlarda QR-kod va "tap to pay" texnologiyasidan foydalaniladi. Hujjatlarini masofaviy biometriya va "SMS xabarnoma" orqali elektron kalitsiz imzolash mumkin bo'ladi. Bu ma'lumotlar qo'g'oz nusxadagi hujjatlar bilan tenglashtiriladi. "Kunlik to'lov" tartibi tajriba tariqasida joriy etilib, xodimlarga to'lovlarni elektron hamyon orqali to'lash imkoniyati yaratiladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarda elektron to'lovlarni qabul qiluvchi maxsus QR-kod mavjud bo'lishi chakana savdo qoidalarining majburiy talabi etib belgilanadi. Raqamli platformadagi pul aylanmalari to'g'risidagi ma'lumot kredit ajratishda inobatga olinadi.

Prezidentimiz bu takliflarni ma'qullab, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorni imzoladi.

### EZGU TASHABBUSLAR MARKAZI

O'ZBEKISTON YETAKCHISINING SIYOSATI  
HAMKORLIKNING O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN  
YANGI ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRMOQDA



Yurgan — daryo deyishadi. Daryolar oqib-oqib, o'z yo'lida uchragan vohayu vodiylarga obihayot baxsh etadi, cho'llarni chamanzorlarga aylantiradi, bog'u xiyobonlarni yashillikka burkaydi. Yo'l yurgan, doim harakatda, izlanishda, intilishda bo'lgan inson ham xuddi daryolar kabi boshqalarga ezigulik ulashadi, bunyod etadi, yaratadi, yashnatadi.

Maqsadi sari intilgan kishiga "Yo'ling ravon bo'lsin!" deya tilak bildirilishi ham bejiz emas. Inson qay manzil tomon harakat

qilmasin, yo'lning sozligi mashaqqatlarni kamaytiradi, yo'lovchiga quvvat, ruhiga kuch, istaklariga shijoat beradi.

Demak, inson organizmini qon tomirlari ozuqa moddalari bilan ta'minlagani kabi yo'llar jamiyatda madaniy aloqalar, qadriyatlar, mahsulotlar, narsa-buyumlar, tovarlar, axborot almashinuvida, umuman, taraqqiyotda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yo'llar qadim zamonlardan beri tamaddunlar shakllanishida, xalqlar o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar mustahkamlanishida hal qiluvchi rolni o'ynab kelgani shundan. Ular nafaqat yuklarni tashishga, balki bilimlar, texnologiyalar va madaniy boyliklarni almashishga ham xizmat qilgan.

#### Nigoh

##### Bosh pozitsiyalarga qaytish

O'zbekistonning tarixiy missiyasi hamisha alohida bo'lgan. Eramizdan avvalgi III-II mingyilliklardayoq bugungi O'zbekiston hududi ilk transkontinental yo'l — Buyuk hind yo'lining markazida joylashgan. Bu yo'l Hind vodiysini Markaziy Osiyo — Baxtriya va Xorazm bilan bog'lagan, so'ng Kavkazorti va Qora dengizdan o'tib, xalqaro savdoning keng tarmog'iga ulangan.

Keyinchalik, antik va o'rta asrlar davrida O'zbekistonning markazdagi joylashuvi o'zining afzalligini yana bir bor namoyon qilgan — bu safar Sharq va G'arbning yirik tamaddunlarini bir-biriga bog'lagan Buyuk Ipak yo'li doirasida. Uning asosiy yo'nalishlaridan biri ilm-fan va savdo taraqqiyotining ramziga aylangan Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari orqali o'tgan. Aynan shu yerda tamaddunlar almashinuvi yuz bergan, ilm-fan, hunarmandchilik rivojlangan, madaniyat gullab-yashnagan.

### "YASHIRIN IQTISODIYOT"GA QARSHI KURASHISH TIZIMI YANADA TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Ilgari biznesga yuqori ma'muriy bosim va aralashuv bo'lgani sababli ko'pchilik oshkora ishlashdan xavfsiz edi. So'nggi yillarda soliq yukini kamaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaydi, 100 dan ortiq turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi.

Natijada, kuzatilmayotgan iqtisodiyot ulushi 2019-yildagi 45 — 50 foizdan hozirda 35 foizga tushdi. Lekin hal buni yanada kamaytirish zarur.

Taqdimotda bu boradagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Mutasaddilar "yashirin iqtisodiyot"ga sabab bo'layotgan omillar va ularni bartaraf etish choralari bo'yicha axborot berdi.

Bunda eng samarali yo'l ilg'or texnologiyalar asosida yangicha yondashuvlarni joriy qilish ekani ta'kidlandi. Masalan, Toshkent shahrida jamoat transporti to'liq avtomatlashgan to'lovga o'tkazilgani yo'lovchilar soni aslida 30 foizga ko'p ekani ko'rsatdi. Yoki raqamlashtirilgan dehqon va buyum bozorlarida tushum 2-3 karra oshayotir.

Shunday tizimni qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo va xizmatlar kabi "yashirin iqtisodiyot" ulushi yuqori bo'lgan sohalarda ham joriy qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Litsenziya va ruxsatnoma berish jarayonlari hamda muddatlarini qayta ko'rib chiqib, inson omilini keskin qisqartirish va barcha qadamlarni to'liq raqamlashtirish

vazifasi qo'yildi. Tadbirkorlar ko'p duch keladigan soliq, bank, bojxona, kommunal, sertifikatlash kabi sohalarda korruptsiyaga yo'l ochayotgan omillarga chek qo'yish zarurligi aytiladi.

Elektron to'lovlar rivojlangani aholiga keng qulaylik yaratmoqda. Bu "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishda ham maqbul vositadir. Buning uchun naqdsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirish, to'lov tizimi operatorlarini ko'paytirish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari faqat nazoratni kuchaytirish bilan "yashirin iqtisodiyot"ni jilovlab bo'lmayligini, aholi va tadbirkorlarning soliq madaniyatini oshirib, to'g'ri ishlaganlarni rag'batlantirish yo'lidan borish kerakligini ta'kidladi.

O'zA.

#### Yig'ilish

### SUDYALAR OLIY KENGASHI RAISINI SAYLASH MASALASI KO'RIB CHIQLIDI

11-avgust kuni Oliy Majlis Senati Kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Uni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Kengash majlisida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisini saylash masalasi ko'rib chiqildi.

Oliy Majlis Senati Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Xolmo'min Yodgorovni Sudyalar oliy kengashi raisi lavozimiga saylash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Shuningdek, majlisda o'tgan besh yil davomida Sudyalar oliy kengashi tomonidan mamlakatimizda sud hokimiyatining nufuzi va samaradorligini ko'tarish maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, ushbu islohotlar tizim faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga, odamlarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Senatorlar muhokama etilgan masala yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

### MEHNAT BOZORIDAGI YARATUVCHAN KUCH

Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jahonda ish bilan band bo'lgan 430 millionga yaqin yoshlarning 50 millionidan ko'prog'i kam ish haqi to'lanadigan ish o'rinlarida band. Rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida o'rnini va raqobatbardoshligi davlatning ta'lim siyosatini belgilovchi eng muhim ijtimoiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uning amal qilishi faqat bitiruvchilarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mutanosib ravishda tayyorlashga emas, balki qanday mutaxassislar kerakligini ham belgilab beradi.

#### Munosabat

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida oliyog'lar bitiruvchilarni

ishga joylashtirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda mazkur yo'nalishni tizimli o'rganish natijasi tahlil qilindi.



### OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SOHASIDA QONUNCHILIK PALATASINING O'RNI YANADA ORTADI

Joriy yilning 30-iyul kuni Prezidentimiz raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko'paytirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

#### Kengashda

Yig'ilishda sohadagi ayni vaziyat chuqur tahlil qilinib, erishilgan yutuqlar bilan birga, bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi yig'ilishida davlat rahbari tomonidan berilgan vazifalardan kelib chiqib deputatlar korpusi oldida turgan muhim yo'nalishlar ko'rib chiqildi. Bu borada kelgusida amalga oshiriladigan ishlar

yuzasidan Chora-tadbirlar rejasi muhokama qilinib, tasdiqlandi.

Unga ko'ra palata oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtiradi. Deputatlar hududlardagi uchrashuvlari davomida dehqonlar, fermerlar va meva-sabzavot yetishtiruvchi boshqa subyektlar bilan amaliy muloqotni yo'lga qo'yadi hamda tizimdagi muammo va masalalarni o'rganadi. Qonun loyihalari uchun zarur takliflar tayyorlaydi. Fuqarolarga islohotlarning ahamiyati keng tushuntiriladi.



#### 12-avgust — Xalqaro yoshlar kuni

## XALQIMIZNING OLTIN FONDI

Har yili 12-avgust sanasi dunyo bo'ylab Xalqaro yoshlar kuni sifatida keng nishonlanadi. Ushbu bayram Birlashgan Millatlar Tashkilotining yoshlar masalalariga e'tiborni jalb qilish harakatlari doirasida paydo bo'ldi va tuzilma Bosh Assambleyasining 1999-yil dekabrda rezolyutsiyasi bilan belgilangan.



Mazkur sanada navqiron avlodning global masalalarni hal qilishdagi roli, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatiga yana bir bor urg'u qaratib kelinmoqda. Shuningdek, ularning yutuqlari, huquqlari e'tirof etiladi, mavjud muammolariga yechim izlanadi. Bu kun jahon hamjamiyati e'tiborini jamiyat taraqqiyotida yoshlarning o'rnini muhimligiga qaratish uchun platforma bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ham mazkur sanaga alohida e'tibor qaratiladi. Zotan, yoshlarni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Prezidentimizning takror va takror "Yoshlar — xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi", deya ta'kidlashi shundan.

Faxr bilan aytish kerakki, bugun yoshlarning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar tobora



takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda yurtimizda yigit-qizlarning muammolari ichil hal qilinib, ularning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, zamon andozalariga mos ta'lim olishi, emin-erkin yashashi, mazmunli horidq chiqarishi uchun barcha shart-sharoit yaratilayotgani shu vaqtga qadar misli ko'rilmagan tarixiy qadamlardir.

E'tiboringizga havola etilayotgan "Eng gullagan yoshlik chog'imda..." sahifasida ham aynan yoshlikning beqiyos kuch-qudrati, unutilmas xotiralari, hayajonu mehruhubbabga boy lahzalari hamda yurtimizda navqiron avlod vakillariga yaratilayotgan imkoniyatlar borasida so'z beradi.

6-sahifaga qarang.

## EZGU TASHABBUSLAR MARKAZI

## O'ZBEKISTON YETAKCHISINING SIYOSATI HAMKORLIKNING O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN YANGI ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRMOQDA

Tarix davriylik bilan ajralib turadi. Xuddi bir necha asr avvaldagi kabi transport yo'laklarining ahamiyati yana ortib bormoqda. Global geosiyosiy o'zgarishlar, logistika zanjirlarining uzilishi va yangicha iqtisodiy voqe'liklar sharoitida aynan mintaqalararo yo'nalishlarda markaziy o'rinlarni egallab turuvchi mamlakatlar kuchli o'sish uchun noyob imkoniyatlarni qo'lga kiritmoqda. Va aksincha, chetda qolganlarning taqdiri og'irlashib, taraqqiyot emas, tanazzul sari yuz tutmoqda.

Yangi O'zbekistonning siyosati – bu qat'iylik va uzoqni ko'ra bilish siyosatidir. Mamlakatimiz Yevroosiyo transport tizimini loyihalashtirishda yana markaziy o'rinni egallayotgan ekan, bu Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ochiqlikka asoslangan siyosat tufaylidir.

Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka saylangan ilk kunlardan oqib qo'shnihilik, mintaqaviy integratsiya, savdo-iqtisodiy diversifikatsiyaga qaratilgan kursni ilgari surmoqda. Bu diplomatik shiorlarga emas, balki aniq natijalarga olib keluvchi strategiyadir. Aynan shu strategiya tufayli mamlakatimiz jahon hamjamiyatida Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'lovchi zanjir halqasiga aylandi.

O'zbekiston rahbarining yaqinda Turkmaniston mezbonlik qilgan BMTning Dengizga chiqish imkonini bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasidagi ishtiroki bunga yaqqol misoldir. Yetakchilar, jumladan, BMT Bosh kotibi, Qozog'iston, Tojikiston Prezidentlari, boshqa davlatlar hukumat rahbarlari bir joyga to'plangan ushbu anjumanda O'zbekiston rahbari dasturiy nutq so'zlab, asosiy tahdid va muammolarni bartaraf etish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimiz eslatganidek, dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan davlatlar qator obyektiv qiyinchiliklarga duch kelmoqda: yuk tashish bo'yicha tariflarning yuqoriligi, transport yo'laklari va infratuzilmasining cheklanganligi, tranzit mamlakatlarning bo'xona siyosatiga qaramlik. Ushbu omillar to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasi transport xarajatlarini tufayli har yili yalpi ichki mahsulotning 2 foizgacha bo'lgan qismini yo'qotmoqda. Logistika xarajatlari tovarlar qiymatining 60 foizgacha qismini tashkil etadi, bu esa jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan bir necha barobar yuqori.

Prezident so'zlariga ko'ra, aynan shuning uchun ham yangi ishonchli tranzit yo'laklari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyotning muhim shartiga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyev dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan davlatlarning barqaror rivojlanishi va ushbu dolzarb muammoni hal qilish uchun uchta prinsipial shartni bajarish lozimligini aytib o'tdi. Bular – infratuzilmani modernizatsiya qilish, o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish va global teng huquqlikning asosiy elementi bo'lgan rivojlanish huquqini ta'minlashdir. Mamlakatimiz rahbari ta'kidladiki: "Bugun bizni birlashtirgan kun tartibi fundamental masala – adolat masalasiga daxldordir. Bu – dengizga chiqish yo'lga ega bo'lmagan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashdir".

Shu bilan bir qatorda keyingi yillarda O'zbekistonda transport-logistika tarmog'ini modernizatsiya qilish bo'yicha keng qamrovi choralar amalga oshirildi. Iqtisodiy islohotlar, savdoning erkinlashuvi, investitsiya muhitining yaxshilanishi o'z natijalarini bermoqda: raqobatbar do'stlik o'syapti, innovatsiyalar jalb etilyapti, hamkorlarning ishonchi ortmoqda.

Mintaqaviy ko'lamdagi loyihalarga ham alohida e'tibor berildi. Prezidentimiz so'zlariga ko'ra, bugun mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Markaziy Osiyoni sayyoramiz miqyosidagi tranzit xabiga aylantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Konferensiya tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ordenini topshirish marosimi ham bo'lib o'tdi.

Ushbu mukofotni O'zbekiston va uning ko'p millatli xalqiga alohida e'tibor va hurmat, Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik, yaxshi qo'shnihilik, o'zaro ishonch va shiriklik munosabatlarni mustahkamlash borasidagi umumiy sa'y-harakatlarimizning e'tirofi sifatida qabul qilaman, dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, konferensiya davomida Prezidentimiz tomonidan aytilgan g'oyalari ekspert doiralarda katta qiziqish uyg'otdi.

Masalan, Ispaniyaning yetakchi nashri "El Mundo Financiero"da mamlakatimizning xalqaro transport kommunikatsiyalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlariga bag'ishlangan maqola chop etildi. Unda ta'kidlanishicha, O'zbekiston spetsifik muammolarni hal qilishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etmoqda. Izchil amalga oshirilayotgan barqaror transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, savdo yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar milliy taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bevosita bog'liq.

O'zbekistonning dengizdan yiroqligi endilikda hech kimni cho'chitayotgani

**“ Yangi O'zbekistonning siyosati – bu qat'iylik va uzoqni ko'ra bilish siyosatidir. Mamlakatimiz Yevroosiyo transport tizimini loyihalashtirishda yana markaziy o'rinni egallayotgan ekan, bu Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ochiqlikka asoslangan siyosat tufaylidir. ”**

yo'q. Bugun bu O'zbekiston uchun xalqaro ustuvorliklarni belgilash va mamlakatni yangi Yevroosiyo logistikasining faol qatnashchisiga aylantiruvchi omildir", deb qayd etildi nashrda.

Yuqori darajadagi anjumanda kiritilgan tashabbuslar nafaqat Prezidentning strategik tafakkurini ko'rsatadi, balki uning adolatli dunyoga intilishini, mintaqada bo'lgan va undan tashqarida global taraqqiyotning yangi, adolatli arxitekturasini shakllantirishga bo'lgan astoydil intilishlarini ham namoyon etadi.

Bularning barchasi davlat miqyosida teran fikrlash, kelajakni ko'rish va shakllantira olish qobiliyatidan darak beradi. O'zbekiston – nafaqat mintaqa markazidagi davlat, balki tashabbuslar, mulqot, barqarorlik va taraqqiyot markazidir. Mamlakat o'ta muhim va bir vaqtda juda mas'uliyatli rol bilan yangi davrga kirib bormoqda.

O'zbekiston mazkur xalqaro sa'y-harakatlarda faol ishtirok etib, transport va logistika infratuzilmasini yangilash, yangi xalqaro yo'laklar yaratish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Transafg'on temir yo'li, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi va boshqa ko'plab yo'nalishlar orqali O'zbekiston o'zining strategik ahamiyatini mustahkamlamoqda va global iqtisodiyotga integratsiyalashuv sari dadil ilgariymoqda, deb yozilgan maqola yakunida.

### Liderlik geosiyosati

Mamlakatimizning ortib borayotgan nufuzi, so'zsiz, uning yetakchisi – Prezident Shavkat Mirziyoyevning geosiyosat maydonida kuchayib borayotgan ta'siri bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston rahbari mintaqada va uning tashqarisida keng miqyosda e'tirofga sazovor bo'layotgan yangi rivojlanish modelining me'mori sifatida dong taratmoqda. Prezident tavalludi munosabati bilan ko'plab davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari tomonidan yo'llangan qutlovlar buning yaqqol isbotidir.

O'z nomalarida dunyoning yetakchi davlatlari, qo'shni mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari Shavkat Mirziyoyevning O'zbekistonni barqaror rivojlantirish, uning xalqaro subyektiligini mustahkamlash va xalq farovonligini oshirishga qo'shgan shaxsiy hissasini alohida ta'kidlaydi.

Bu kabi yuksak baho diplomatik iboralar bilangina cheklanib qolmaydi. O'zbekiston Prezidentining siyosati va tashabbuslari mamlakat ichidagi vaziyatga ijobiy ta'sir o'tkazibgina qolmay, butun Markaziy Osiyo mintaqasida ishonch va pragmatizmga asoslangan hamkorlikning yangi arxitekturasini shakllantirayotgani alohida urg'ulanadi.

Mamlakatning ortib borayotgan obro'si oddiy fuqaroga nima beradi? U har bir insonga aniq-ravshan, o'z o'lchami va ahamiyatiga ega manfaatlar olib keladi. Sodda va ayni vaqtda hayotiy misollardan biri – fuqarolarimiz uchun xalqaro mobillikning erkinlashirilishi. Tashqi ishlar vazirligining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston o'z fuqarolariga erkin harakatlanishni ta'minlash borasida ancha ilgari lab ketdi: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi pasporti sohiblari vizasiz 40 ga yaqin mamlakatlarga borishlari mumkin, yana 42 mamlakat bilan esa kirishning soddalashtirilgan tartibi joriy qilingan.

Bir esga oladigan bo'lsak, 2016-yil holatiga 52 ta mamlakatga soddalashtirilgan tartib asosida borish mumkin edi. Hozirda esa ushbu ro'yxat 82 ta davlatgacha kengaygan. Shunda ham mazkur taomilga shartli ravishda amal qilinar edi: kirish-chiqishni qayd etuvchi idora

tamg'asini urdirmasdan faqat sobiq ittifoqning 9 ta respublikasiga borishga ruxsat berilgan edi, xolos.

Bugun holat tamomila boshqacha. Oxirgi uch yilda qator davlatlar, jumladan, Xitoy, BAA, O'mon va Eron bilan vizasiz tartib joriy etildi. Fahmlaganingizdek, aynan shu mamlakatlar yetakchilari bilan O'zbekiston Prezidenti uchrashgan va iliq munosabatlar o'rnatibgina qolmay, o'zaro ishonch natijasida soddalashtirilgan tartibga kelishib olingan. Bunday yondashuv izchil davom ettirilishiga shubha yo'q, zero, Saudiya Arabistoni, Qatar, Vietnami va boshqa mamlakatlar ham viza talablarini yumshatishdi. Yana o'nlab davlatlar bilan kirish shartlarini erkinlashtirish yuzasidan faol muzokaralar olib borilmoqda. Tashqi ishlar

vazirligi manbalarida aytilishicha, mamlakat rahbarining topshirig'iga binoan ushbu yo'nalish mazkur mahkamaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab olingan.

Bu kabi muvaffaqiyat O'zbekistonga, uning rahbariyatiga bo'lgan ishonchning bevosita natijasidir. Keltirib o'tilgan misol mamlakat liderining obro'si, respublikaning xalqaro e'tirofi aholi foydasiga xizmat qilayotgani ko'rsatadi.

Rasmiy Toshkentning sa'y-harakatlari xorijda ham yuqori baholanmoqda. O'zbekistonning bugungi rivojlanish bosqichini sharhlar ekan, Janubiy Koreya onlayn-eksport-import uyushmasining raisi Cho Don Xve Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosati asosida ochiqlik, pragmatizm va yaqin qo'shnihilik tamoyillari yotishini aytadi. Uning ta'kidlashicha, davlat rahbari yaqin qo'shnilar bilan munosabatlarni shakllantirishda, avvalo, konstruktiv va o'zaro ishonchga asoslangan siyosatga ustuvorlik qaratgan. Ekspertning so'zlariga ko'ra, chegara masalalarini hal etish, transchegaraviy savdoni rivojlantirish, umumiy suv va infratuzilmaviy resurslarni boshqarishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

– O'zbekiston xalqaro maydonda ham faol siyosat yuritmoqda, – deydi Cho Don Xve. – JSTga a'zo bo'lish yuzasidan olib borilayotgan

**“ O'zbekiston ham dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas, lekin bu geografik cheklovni xalqaro infratuzilma yo'laklarida ishtirok etish orqali muntazam ravishda to'ldirib kelmoqda. Iyul oyida Xonkendid bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihasini yakunlash muhimligini ta'kidladi. Kelgusida Transafg'on yo'lga bilan bog'lanadigan ushbu magistral ulkan mintaqani qamrab oluvchi va mamlakatning tranzit salohiyatini kuchaytiruvchi yagona transport makonini yaratadi. ”**

muzokaralar, viza siyosatini liberalashtirish, turizm va xalqaro biznesni rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish – bularning barchasi davlatning mutlaqo yangi qiyofasini shakllantiradi. Mamlakatning o'zida amalga oshirilayotgan islohotlarni ham alohida e'tirof etish zarur: investitsiyalar uchun sharoitlarni yaxshilash, korrupsiyaga qarshi kurashish, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish shular jumlasidan. Mazkur choralar tekstdan tortib energetikagacha bo'lgan yetakchi tarmoqlarga sarmoya jalb etishga imkoniyatlar ehsigini ochadi.

Uning so'zlariga ko'ra, Toshkentning ko'p vektorli tashqi siyosati barqaror rivojlanish va milliy manfaatlarni himoya qilish imkonini beradi. Suverenitet hamda strategik mustaqillikni unutmagan holda O'zbekiston Xitoy, Rossiya, AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya va Malayziya bilan strategik munosabatlarni shakllantirmoqda.

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, BMT Rivojlanish dasturi kabi tuzilmalarning ortib borayotgan e'tibori O'zbekistonning islohotlar siyosatiga bo'lgan ishonchdan dalolat beradi. Xalqaro hamkorlar infratuzilma, raqamlashtirish, energetika sohalariga, davlat boshqaruvini isloh qilishga investitsiyalar kiritmoqda. Ta'lim sohasiga ham salmoqli sarmoyalar kirib kelyapti. O'zbekistonda nufuzli oliy o'quv yurtlarining filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Ekspert mazkur jarayonlarni kelajakka, inson kapitaliga, global fikrovchi, lokal ish yuritishga qodir yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar deya baholaydi.

Aynan izchillik, pragmatizm va ochiqlik – O'zbekiston Prezidentining nafaqat ishonch, balki strategik barqarorlikni yuzaga keltiradigan zamonaviy siyosatining mazmunini tashkil etadi. O'zbekiston jahondagi o'z mavqegini balandparvoz shiorlar hisobiga emas, balki puxta o'ylangan va aniq-tiniq siyosat evaziga mustahkamlab bormoqda.

Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, mamlakat mintaqada, xalqaro munosabatlarda o'z fuqarolari nazdida o'zini qaytadan kashf etmoqda. Bu jarayonda yetakchining ufq ortini ilg'ashga qodir, murakkab global vaziyatga qaramay olg'a intiluvchi siyosiy irodasi o'ta muhim rol o'ynaydi.

### Ilhomlantiruvchi namuna

O'zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari va mamlakatning xalqaro nufuzi oshib borayotgani haqida gap ketganda, Shavkat Mirziyoyevning islohotlar yo'li samaradorligi yetakchi xalqaro institutlar va tahlil markazlari tomonidan tobora ko'proq e'tirof etilayotganiga ko'z yumib bo'lmaydi.

Ular orasida Xalqaro valyuta jamg'armasining yaqindagi hisobotini keltirish mumkin. Hujjatda qayd etilishicha, 2016-yildan beri O'zbekiston iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot yiliga o'rtacha 5,7 foiz ko'rsatkichda barqaror o'sishni namoyon etmoqda. Ayniqsa, mamlakatda qashshoqlik darajasi 2024-yilda 8,9 foizgacha pasaygani e'tiborga loyiq. Bunday ma'lumotlar nafaqat ijobiy makroiqtisodiy tendensiyalarni, balki milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarni ham aks ettiradi.

XVJ hisobotida "O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishda sezilarli yutuqlarga erishdi", deb ta'kidlanadi. Jamg'arma ekspertlari savdoni liberalashtirish, valyuta almashuv kursini isloh qilish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etishni o'shning asosiy drayverlari sifatida alohida ajratib ko'rsatgan. Shu bilan birga, jamg'arma islohotlarni, ayniqsa, bank sektori va korporativ boshqaruv sohalarida davom ettirishni tavsiya qiladi. Bu esa yangi O'zbekistonda izchil ilgari surilayotgan tashabbuslardan yana biri – mamlakatning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishining muhim shartidir. Joriy o'zgarishlar sur'ati shu yo'nalishda davom ettirilsa, jamg'arma prognoziga ko'ra, mamlakat yaqin yillarda taxminan 6 foiz darajasida o'sishni saqlab qola oladi.

Berilayotgan bu baholar mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy model tobora ochiqlik,

60 trln. so'mni tashkil etdi. Yo'li ishlari hajmi besh barobar oshdi, 106 ming kilometrlik yo'li holati yaxshilandi, 713 ta ko'priq qayta qurildi va mingdan ortig'i ta'mirlandi. Kapital ta'mirga muhtoj yo'llar ulushi 68 foizdan 27 foizgacha pasaydi. Joriy yilda 21,5 ming kilometr avtomobil yo'llari va 320 ta ko'priq qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash rejalashtirilgan. Ajratilgan umumiy mablag' – 13 trln. 245 mlrd. so'm!

16 ta xalqaro loyiha doirasida 1300 kilometr avtomobil yo'llari qayta qurildi, umumiy qiymati 2,2 mlrd. dollar bo'lgan yana 9 ta loyiha ishlab chiqilmoqda. Pullik yo'llar qurilishiga xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Bularning barchasi mamlakatning yangi infratuzilma arxitekturasini maqsadli shakllantirayotganidan dalolat beradi.

Jahon miqyosidagi yaqqol misol sifatida Keniyadagi "LAPSET" loyihasini ko'rsatish mumkin. Bu loyiha Lamu portini Janubiy Sudan va Efiopiya bilan bog'lovchi transport yo'ligidir. Ushbu keng ko'lamli loyihaning amalga oshirilishi allaqachon katta miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, mintaqaviy savdo hamda bandlikni ta'minlashning drayveriga aylandi. Bashoratlariga ko'ra, "LAPSET" 1,2 mln.gacha ish o'rni yaratadi va Keniyaning Sharqiy Afrikadagi logistika rolini kuchaytiradi.

Avval ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston ham dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas, lekin bu geografik cheklovni xalqaro infratuzilma yo'laklarida ishtirok etish orqali muntazam ravishda to'ldirib kelmoqda. Iyul oyida Xonkendid bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihasini yakunlash muhimligini ta'kidladi. Kelgusida Transafg'on yo'lga bilan bog'lanadigan ushbu magistral ulkan mintaqani qamrab oluvchi va mamlakatning tranzit salohiyatini kuchaytiruvchi yagona transport makonini yaratadi.

Iordaniyaning yetakchi "Ammon News" gazetasida mamlakatimizning iqtisodiy transformatsiyasiga bag'ishlangan maxsus maqola chop etildi. Unda shunday deyiladi: "O'zbekiston iqtisodiy yangilanishning ilhomlantiruvchi namunasidir. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, innovatsiyalarni joriy etish, raqamlashtirish va barqaror rivojlanish orqali mamlakat global investitsiyalar va texnologiyalar xaritasida munosib o'rin egallashga intilmoqda".

Mualliflarning ta'kidlashicha, O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalariga, raqamli iqtisodiyotga, infratuzilma loyihalariga tobora ko'proq investitsiya kiritmoqda. Bu esa uni xalqaro investorlar uchun jozibali hamkorga aylantiradi, mintaqaviy innovatsiyalar markazi roliga da'vogarlik qilish imkonini beradi.

Darhaqiqat, mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ma'lum bir nuqtalarga qaratilgan emas, balki tizimli xususiyatga ega. O'zbekiston xalqaro institutlar bilan aloqalarini mustahkamlagan va strategik tafakkurga tayangan holda modernizatsiya yo'lidan dadil ilgari lab bormoqda va bu davlat siyosatining har bir qadamida namoyon bo'lmoqda.

Xorijiy matbuotning hisobotlari va maqolalarida yangi O'zbekiston muvaffaqiyatlarining tilga olinishi Prezident tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar, izchil amalga oshirilayotgan chuqur o'ylangan va muvozanatli siyosatning natijasidir. Hech shubha yo'qki, O'zbekiston bu yo'lda o'zining strategik maqsadlariga intilish, xalqaro maydondagi pozitsiyasini mustahkamlash va xalqning farovonligini oshirish kursini saqlab qoladi. Yangi O'zbekiston ezgu tashabbuslar markaziga aylanayotgani, jonajon Vatanimizning yanada ravnaq topayotgani milliy yetakchimizning oqilligi, uzoqni ko'ra olish qobiliyati, qat'iy siyosiy irodasi va mardonavor jasorati samarasidir.

**Sahardan bedorlik, shijoat, jur'at,  
Qolar pok niyatlar bag'rida mangu.  
Shashtida sabot bor, sabru matonat,  
Nur kabi betakror yaralgan jon ul!**

**Zulmatga chorlasa allakimsalar,  
Ezgulik yo'lga baxshida bu nur.  
Kimlardir tinchlikni mensimasalar,  
Yorug'lik tomonga u boshlab borur...**

**Umrini bag'ishlab millatga, shonga,  
Bellashar zamonda shitob bilan u.  
Har ko'ngil, har o'lka, har xonadonga  
Boradi ilmi nur – kitob bilan u.**

**U millat dilbandil!  
Boqqil zamondosh,  
Unga talpinadi yaqin uyoq.  
Bor bo'lsin shunday nur baxsh etgan Quyosh,  
Qadami qutlug'dir, tilagi porloq!**

O'tkir RAHMAT.

# QONUN TALABI BARCHAGA BAROBAR



Imkoniyati cheklanganlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq qator masalalar mamlakatimiz qonunchiligida qat'iy mustahkamlangan. Unga ko'ra, tashkilotlar nogironligi bo'lgan shaxslarning sport inshootlari, dam olish maskanlari, shuningdek, turistik obyektlardan beminnat foydalanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratib berishi shart. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi esa tegishli davlat tashkilotlari va hokimiyatlarga anchayin murakkab, zararli va moliyaviy tomondan yaxshigina mablag' talab etuvchi vazifalarni yuklaydi. Bu nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy obyektlarda hech qanday to'siqsiz harakat qilishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Imkoniyati cheklangan shaxslar har qanday ijtimoiy obyektlardan va xizmatlardan hech qanday to'siqsiz foydalana olishlari shart.

## Senator so'rovi

Aynan shu masalada Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Malika Qodirxonova O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi Abdurashid Jo'raboyevga senator so'rovi yubordi.

So'rovda jismoniy imkoniyati

cheklangan shaxslar uchun infratuzilmaviy sharoitlarni yaxshilash, xususan, radiotarmoq obyektlarida xavfsiz va qulay mehnat muhitini ta'minlash masalalari ko'tarilgan.

Jumladan, Toshkent shahrida olib borilgan o'rganishlar natijasida radio sohasida faoliyat yurituvchi

tashkilotlarning moddiy-texnik holatini yaxshilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilganligi, shu bilan bir qatorda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga qarashli Toshkent radioeshittirish uyi binosida uzoq yillardan buyon o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi.

Ta'kidlash joizki, mazkur bino 1966-yilda qurilgan bo'lib, 5

qavatdan iborat. Unda "O'zbekiston", "O'zbekiston 24", "Yoshlar" radiolari, "Mahalla" teleradiokanali, "O'zbektelefilm" DUK, "Maqom" ansambli faoliyat yuritmoqda. Binodagi yagona lift 1982-yilda ishga tushirilgan va 41 yil mobaynida foydalanib kelingan. Ammo 2023-yildan beri texnik talablarga javob bermagan uchun undan foydalanilmaydi.

Mavjud tartib-taomillarga ko'ra, agar lift pasportida xizmat muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, undan 25 yildan ortiq foydalanish mumkin emas. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-oktyabrda qaroriga muvofiq texnik reglamentga javob bermaydigan liftlardan foydalanish taqiqlangan.

Bugungi kunda liftning ishlamasligi natijasida binoda faoliyat yuritayotgan 600 ga yaqin xodimlar, 2 mingdan ziyod radioeshittirish va ko'rsatuvlarda ishtirok etuvchilar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksa yoshdagi xodimlar jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Bundan tashqari, binoning yuqori qavatlariga chiqish uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga zarur bo'lgan qulayliklar – panduslar, maxsus to'siqlar va nogironlar aravachasi uchun ko'targich uskunalar mavjud emas. Bu esa mehnat unumdorligi va mehmonlarga ko'rsatiladigan xizmat sifatiga ham salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Shuningdek, Toshkent radioeshittirish uyi mutasaddilarining takroriy murojaatlariga qaramay, liftni yangilash yoki muqobil infratuzilmaviy joriy etish yuzasidan amaliyotda tegishli choralar ko'rilgan.

Senator so'rovida ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida lift tizimini zamonaviy talablar va xavfsizlik me'yorlariga mos holda yangilash, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida asoslangan ma'lumot taqdim qilish so'ralgan.

"Xalq so'zi".

## ANDIJON

### tomonlarda

## MikroGES qurilishi boshlandi

Baliqchi tumanidagi O'rmonbek mahallasidan o'tuvchi "Katta Andijon" magistral kanalida mikroGES qurilishi boshlandi. Loyiha foydalanishga topshirilgach, bir oyda 1 mln. kVt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Buning natijasida besh mingta xonadon uzluksiz ta'minotga ega bo'ladi.



– Shu kungacha Ulug'nor va Izboskan tumanlarida shunday GESlar qurilishida ishtirok etdik, – deydi xitoylik investor Li Jun. – Baliqchi tumanidagi ushbu loyihani barpo qilishda ham eng avvalo, sifatga alohida e'tibor qaratmoqdami. Zero, mikroGES ishga tushirilgach, uzoq yillar davomida aholiga beminnat xizmat ko'rsatishi kerak. 30 mlrd. so'mlik loyiha qurilishi joriy yil yakuniga qadar davom etishi rejalashtirilgan.

Ma'lumot o'rinda aytish lozim, 2024 – 2026-yillar mobaynida Andijon viloyatida 790 ta shu kabi gidroelektr stansiyani qurish rejalashtirilgan bo'lib, ayni damgacha 6 ta loyiha foydalanishga topshirildi.

## Suv ham, pul ham tejaladi



Mutaxassislarning ma'lum qilishicha, o'rtacha besh kishi istiqomat qiladigan xonadondagi suv jo'mragiga hisoblash moslamasini o'rnatish orqali bir oyda 67 843 litr suvni tejash mumkin. Iste'molchi tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori esa 5-6 barobarga iqtisod qilinadi.

– Bu raqamlarning o'ziyoq suv hisoblash moslamasi nechog'li afzal ekanidan dalolatdir, – deydi "Andijon suv ta'minoti" AJ bo'lim boshlig'i Xushnubek Ahmadaliyev. – Shu bois viloyatda bu boradagi ishlar jadal davom ettirilmoqda. Xususan, joriy yilning o'qogon davri mobaynida 43 062 ta moslama o'rnatilib, ta'minotda aniqlik va shaffollik yo'lga qo'yildi. Ayni paytda viloyatda 309 608 ta suv hisoblash moslamasi o'rnatilgan. Bu mavjud aholi xonadonlarining 57,1 foizini tashkil etadi.

## Yoshlar va innovatsiyalar maskani

Andijon shahridagi Yoshlar texnoparkida yuzlab yigit-qizlar ilm-fan, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib, zamonaviy kasblarni egallash, istiqbolli loyihalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniga ega bo'lmoqda.



– Mening "Space Agro" loyiham "Innovatsion yoshlar" dasturi doirasida 200 ming AQSH dollariga baholandi, – deydi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi Muhammadusmon Adashev. – Shundan 10 foizli ulush sifatida 20 ming dollar miqdoridagi mablag' loyihani shakllantirishga yo'naltirildi. Ushbu loyiha qishloq xo'jaligida yer unumdorligini oshirishdan tortib, yuqori hosil olishgacha bo'lgan jaronoyi o'rgatadi. Men bunga Yoshlar texnoparkidagi imkoniyatdan unumli foydalanish orqali erishdim.

Ushbu maskanda shu kungacha 82 ta loyiha shakllantirilib, mahalliy va xalqaro tanlovlarga tavsiya etildi. Natijada 29 ta loyihaga 8,3 mlrd. so'mlik investitsiya jalb qilindi.

Saminjon HUSANOV  
("Xalq so'zi").

## Senator va hayot

### AHOLI MUHOJIRLARI TINGLANDI

Parlament yuqori palatasining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi, senator Jamila Bobonazarova Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida sayyor qabul o'tkazdi.

Tuman Kengashi deputatlari ham ishtirok etgan qabulda aholining murojaatlari va takliflari atroficha ko'rib chiqildi.

Xususan, qabul jarayonida fuqarolar tomonidan ko'tarilgan ijtimoiy, huquqiy hamda turmushga oid masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Sayyor qabulda murojaatlarning aksariyatini joyida hal etish choralarini ko'rish bilan birga, ularning yechimini ta'minlash yuzasidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy yordam ko'rsatish vazifalari ham belgilandi.

"Xalq so'zi".

# MEHNAT BOZORIDAGI YARATUVCHAN KUCH

E'tiborli tomoni, band bo'lmagan 92 ming nafar bitiruvchining mehnat bozorida munosib o'rin egallashiga qaratilgan alohida yo'nalish belgilab berildi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida bitiruvchi talabalarning mehnat bozorida o'rini, ishga joylashishiga oliy ta'lim bosqichida 80 foizdan ko'proq ilmiy-amaliy seminarlar, yetakchi mutaxassislar, ish beruvchilar, salmoqli natijalarga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlar va amaliyotlar natijasida erishiladi. Bu amaliyotni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham kengaytirish ijobiy samara berishi, shubhasiz.

Davlatimiz rahbari "tarmoq – korxonalar – oliygoh" zanjirini yo'lga qo'yishni jadallashtirishga alohida e'tibor qaratadi, bu tizim oliy ta'lim muassasalariga va ish beruvchilarga hamkorlikning maqsadli yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur zanjirda talabalarni tayyorlash kelajak kasbiy faoliyatni samarali olib borish uchun zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda tarmoq, korxonalar va oliy ta'lim muassasalari zimmasidagi asosiy vazifa ekanligi ko'rinadi. Korxonalar buyurtmachi sifatida talabalarning sifatli ta'lim olishi, o'quv dasturlari, maxsus fanlarni o'qitish va raqobat qobiliyatini shakllantirishga ham manfaatdor,

ham nazoratchi vazifasini bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng muhimi, mazkur zanjirning samarali ishlashi raqobatbardosh bitiruvchining sifat ko'rsatkichlari shakllanishi, bugungi kun talablariga to'liq javob berishini ta'minlashi muqarrar.

Hozirgi zamonaviy sharoitda dunyoda OTM bitiruvchilarining yarmidan ko'prog'i, ya'ni 53,5 foizi o'z mutaxassisliklari bo'yicha mehnat faoliyatini yuritmaydi. Bu ko'rsatkich esa mazkur masalaning ahamiyatini yana bir bor oshiradi.

Shu sababli, mehnat bozoriga kirayotgan bo'lg'usi mutaxassislarini ish beruvchilarga ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim muassasalarining ham o'zgaruvchan tashqi muhitga oqilona va o'z vaqtida moslashishini ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalariga hamda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining mehnat bozorida o'rini munosib shartlar asosida egallashida kasbiy malaka va motivatsiya alohida o'rin egallaydi. Bitiruvchining kasbiy malaka darajasi uning ta'lim muassasasidagi ta'lim sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim dasturi darajasi va murakkabligini, tayyorgarlik sifati, o'zlashtirish

jihatlarini ko'rsatib beradi. Motivatsion salohiyat esa bitiruvchining kasbiy faoliyatiga oid o'ziga xos ambitsiyalari, o'z imkoniyatlarini namoyon etishi va shaxsiy fazilatlarini ifodalaydi.

Fikrimizcha, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini ochishda hududlarda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida faoliyat yurituvchi yangi ish boshlaydigan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli soliq hamda kredit stavkalarini belgilash, aniq manzilli va kafolatlangan investitsiya mablag'laridan samarali foydalanish holda yuqori turistik salohiyatlarga ega qishloq hududlarida agroturizm klasterlariga asos solish, ular tarkibida mahalliy yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik faoliyatlarini bo'yicha yoshlar uchun yangi ish joylari tashkil qilishni davlat tomonidan tashkiliy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ham sohani rivojlantirish hisobiga bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash borasida ko'zlangan natijalarni beradi.

Jamila BOBANAZAROVA,  
Oliy Majlis Senatining  
Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

## Ilhom Tuax ILLIAS:

# O'ZBEKISTON – KATTA SALOHIYATGA EGA DAVLAT

Alloh taolo bu buyuk yurtning barakasini oshirsin va yanada farovon, yanada rivojlangan kelajak sari boshlasin!

Albatta, mustaqillik har qanday davlat uchun o'z-o'zini anglash, xalqaro maydonda erkin siyosat yuritish, rivojlanish vektorlarini aniqlab olish nuqtayi nazaridan juda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, Malayziyada eng ustuvor yo'nalish – qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'lib, faqatgina bu tizimda sezilarli va yetarli darajada o'sishga erishilgandan so'nggina ishlab chiqarish, og'ir yoki yengil sanoat va boshqa yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi. Malayziya misolida, yana bir diqqatga sazovor masala – bu ta'lim sohasidir. Sababi malakali ishchi kuchini ta'minlash davlat boshqaruvi uchun muhim o'rin tutadi.

Barchamizga yaxshi ayonki, O'zbekiston o'zining tabiiy resurslari, jumladan, oltin, ko'mir va gaz zaxiralariga boy o'lka hisoblanib, mintaqada katta salohiyatga ega davlatdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligi ostida 2016-yildan buyon O'zbekistonda ulkan islohotlar olib borilmoqda. Bu yo'lda erishilayotgan katta ijobiy natijalar mamlakatning barqaror iqtisodiy yuksalishida namoyon bo'lyapti. Jumladan, iqtisodiyotning liberallashuvi va erkinlashuvi, biznes muhitining rivojlanishi, tashqi investitsiya oqimining o'sishi va boshqalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Oxirgi yillarda O'zbekistonda kuchli davlat siyosati va iqtisodiy ko'tarilish kuzatilayotganiga qaramay, Prezident turli sektorlarni yanada rivojlantirishga ehtiyoj borligini e'tirof etib, shunga yarasha imkoniyatlar yaratib beryapti. Umuman olganda, O'zbekistonda Shavkat Mirziyoyev rahbarligi ostida kompleks darajada faol ichki va tashqi siyosat olib borish jarayonini



kuzatmoqdami. Mamlakatda, xususan, Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazib kelinayotgan nufuzli xalqaro konferensiya va anjumanlar, yuqori darajadagi biznes forumlari buning yaqqol isbotidir. Endi bevosita O'zbekiston yetakchisining mamlakatimizga tashrifi, erishilgan ahdomalar va ularning ijrosi masalalariga to'xtaladigan bo'lsak, ta'kidlash lozimki, tashrif ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi darajaga olib chiqdi. Ushbu tashrif doirasida, Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tor doirada hamda ikki tomon delegatsiyalari ishtirokida texnologiya, ilm-fan, biznes, turizm, sun'iy intellekt yo'nalishlarini va o'zaro investitsiya oqimini kuchaytirishga kelishib oldilar.

Bundan tashqari, Malayziyaning "MIMOS" kompaniyasi va O'zbekistonning "Uzeltexsanoat" kompaniyasi o'rtasida yarimo'tkazgich texnologiyasi yo'nalishida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, jumladan, Malayziyadan O'zbekistonga palma yog'i eksportini oshirish, bu sohani rivojlantirishda yetakchi korxonalar ko'nikma va malakalarini bo'lishish masalalari ham muhokama markazida bo'ldi. Buning uchun Toshkentda "Malayziya – O'zbekiston sanoat zonasi"ni tashkillashtirishga kelishib olindi. Malayziyaning neft va gaz yo'nalishida faoliyat

olib boruvchi "PETRONAS" kompaniyasining O'zbekiston bozoriga kirishi masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, oliy ta'lim, turizm, ayniqsa, ziyorat islomiy turizmi, fuqaro mudofaasi xavfsizligi yo'nalishlarida hamkorlik masalalari yo'lga qo'yildi. Ikki davlat rahbarlari sog'liqni saqlash, sud ekspertizasi, madaniyat, oliy ta'lim va akademik diplomatik hamkorlik, "halol sertifikatlash" hamda bojxona sohasidagi ucha memorandum va bitim bilan almashganlariga guvoh bo'ldik. Shu yilning 13-mayida Malayziyaning "JAKIM" kompaniyasi bilan halol sertifikatlash sohasida o'zaro anglashuv notasi imzolandi.

O'zaro ko'nikma, bilim va malaka almashish maqsadida, jumladan, "halol sertifikatsiyalash" yo'nalishi bo'yicha Malayziyaning tegishli kompaniyalari joriy yilning sentyabr oyida O'zbekistonga tashrif bilan kelishi kutilmoqda. Bu sohalarda ular O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan muzokaralar olib borishadi. Sentyabr oyining o'zida yana islomiy bank yo'nalishi bo'yicha ham Malayziya Markaziy banki delegatsiyasi Toshkentga tashrif buyuradi. Avgust oyining oxirida, aniqrog'i, 26 – 28-avgust kunlari oliy ta'lim bo'yicha o'zaro hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqish, eng asosiysi, o'zbekistonlik yoshlarni mamlakatimizda o'qishga jalb etishga qaratilgan tadbir (Universiti Pendidikan Sultan Idris – UPSI) qatnashish maqsadida Malayziya ta'lim vazirining tashrifi kutilmoqda.

Yaqinda shaxsan o'zim Malayziyaning "AirAsia X" aviakompaniyasi tomonidan tashkillashtirilgan Kuala-Lumpur – Toshkent yangi havo yo'nalishining ochilishiga bag'ishlangan tadbir qatnashdim. Shubhasiz, havo

qatnovining yo'lga qo'yilishi munosabatlarimizda katta voqeelik hisoblanadi.

Malayziya qayta tiklanuvchi energiya sohasida, ayniqsa, quyosh energiyasi bo'yicha katta tajribaga ega. O'zbekiston – muqobil energetikani jadal rivojlantirayotgan mamlakat. Shu sababli, biz quyosh va gidroelektr energiyasi loyihalari ravnaqi bo'yicha hamkorlik uchun katta salohiyatni ko'ramiz. Ayni paytda, Malayziyaning ayrim kompaniyalari Qashqadaryo viloyatiga qiziqish bildirmoqda. Ular viloyat hokimi bilan uchrashishni rejalashtirgan va u yerdagi daryolardan foydalangan holda 5 megavattdan kam bo'lgan kichik gidroelektr stansiyalari qurish imkoniyatlarini o'rganmoqchi. Buning energetika bo'yicha kompaniyalarimiz mutaxassislari sentyabr oyida O'zbekistonga tashrif buyurishni rejalashtirgan. Bu esa yaqin kelajakda ko'plab istiqbolli tashabbuslar amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Qayta tiklanuvchi energiyadan tashqari boshqa ko'plab sohalarda ham hamkorlik imkoniyatlari mavjud. Ular qatoriga halol oziq-ovqat sanoati, islomiy moliya, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, startaplar, kimyo va dori-darmon sanoati, elektronika va elektron muhandislik, to'qimachilik, halol ekotizim, konchilik va metallurgiya,

O'zbekistonning salohiyati beqiyos va men ko'plab investorlarning bu yerga kirishga qiziqish bildirayotganini ko'ryapman. Albatta, yana shuni ta'kidlash kerakki, bu yerda ikki yil yashab "biznes etikasi" hali ham sovet davridagi uslubda ekanini kuzatdim. Buning o'zgarishi ma'lum vaqt talab etishini tushunaman, ammo O'zbekiston bosqichma-bosqich zamonaviy va xalqaro qabul qilingan biznes amaliyotiga o'tishiga umid qilib qolaman. Sababi jahon jamoatchiligining O'zbekistonga e'tibori kuchli. Har oy, har hafta, har kun bu yerga yangi odamlar – biznesmenlar, investorlar va hamkorlar kelmoqda. Shuning o'ziyoq, dunyoda O'zbekistonga nisbatan qiziqish oshib borayotganining aniq dalilidir.

"Xalq so'zi".

Malakasini oshirish va kasbga qayta tayyorlanish istagidagi shaxslarga qo'shimcha ta'lim olish uchun "kasb vaucheri" berish tartibi joriy etiladi.





